Zamonaviy ta'lim tizimida AR (Augmented Reality) texnologiyalarining qo'llanilishi	617
<i>Abdumo'minov Burxonjon Sunnatillo o'g'li</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Role of Psychological Support in the Formation of Students' Socio-Emotional Competence in Preschool Education 622 <i>Kamol'dinova Diyora Jaloliddin qizi</i>
	Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 626 <i>Xudoynazarova Moxira Xakimovna</i>
	Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatini metodlar orqali rivojlantirish 629 <i>Ro'zmetov Ravshan Sharipbayevich</i>
	Bo'lajak tarbiyachilarda muloqot madaniyatini tarbiyalash 633 <i>Uljayeva Sevara Abdirazzoqovna</i>
	Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan zamonaviy darsliklar tuzilishi va mazmuni 638 <i>Po'latova Marjona Inomjon qizi</i>
	STEAM ta'lim texnologiyasini maktabgacha ta'limida qo'llash bo'yicha xorijiy tajribalar 643 <i>Saidova Nigora Olimovna, Pirmatova Zaynabxon Elmurod qizi</i>
	Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish 646 <i>Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi</i>
	O'quvchilarda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning shakllanishi va uning dolzarb muammolari 650 <i>Gaparova Mastona Safaraliyevna</i>
	Adabiyot darslarini o'qitishda 5E modelidan foydalanish 654 <i>Abdiraupova Zarnigor Abdinabi qizi</i>
	Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari 657 <i>Ernazarov Alisher Ergashovich, Chinqulova Gulmehra</i>
	Traditional Techniques and Modern Approaches in the Production of National Costumes 665 <i>Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</i>
	Pedagogik platformalar va kognitiv-didaktik yondashuvlar integratsiyasi yordamida talabalarning kasbiy tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish 668 <i>Raxmonov Omadjon Mamasidiq o'g'li</i>
	Aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyani bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning ahamiyati 672 <i>Usmonov Umid Allayorivich</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish 676 <i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna</i>
	Tadqiqotchilik kompetentligi pedagogik muammo sifatida 681 <i>Ergashev Nozim Nabiyeovich</i>
	Teaching Reading to Young Learners: Essential Principles for Primary School Teachers 684 <i>Toshtanova Maftuna Xamidjon qizi</i>
	Tarmoq qurilmalari va tizimlarini boshqarish modulini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash 687 <i>Karimova Charos Abduhalim qizi</i>
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari 691 <i>Musayeva Nafisa Kudratovna, Muxammadova Saodat Muzaffar qizi</i>
	"Kasbiy ma'naviyat" fani bo'lajak pedagoglarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni intensiv rivojlantirish omili 695 <i>Ismoilov Yoqubjon Quchqarboyevich</i>
	Yapon tilini o'rgatishda talabalarning gapirish ko'nikmasini rivojlantirish: tamoyillar, bosqichlar va innovatsion usullar 699 <i>Baqoyev Navro'zjon Abdullo o'g'li</i>
	Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari 705 <i>Zokirova Nargiza Akbarjonovna</i>
	Bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari 710 <i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i>
	Ta'lim islohotlari sharoitida genderni yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari 714 <i>Yaxyayeva Sojida Abduraximovna</i>
	Ko'rsatish olmoshlarining vazifaviy uslublarda qo'llanilishi 718 <i>Berdiyeva Malika</i>
	Nazorat turlari orqali o'quvchilarning savodxonlik kompensatsiyasini shakllantirish 721 <i>Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Jo'rayeva Shodiya Kenjaali qizi</i>



Zamonaviy boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida o'quvchilarda lug'atlar bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	726
Buvajonova Mohiraxon Usmonali qizi	
Boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari: innovatsion taraqqiyot, metodik yangiliklar va istiqbollari	731
Nazarova Mohigul Akmalovna	
Maktab va pedagogika institutlari o'rtasida amaliyotga yo'naltirilgan dual ta'lim modelini takomillashtirish: muammolar va yechimlar	736
Arabova Muxiba Bazarovna	
Помощь советского государства в подготовке кадров для арабских государств	740
Хомидова Камола	
Место Узбекистана в развитии культурной сферы Советского союза во второй половине XX века ..	744
Бекназаров Собиржон	
Toshkent xalqaro kinofestivallarining Arab davlatlari va Afrika mamlakatlari kinosan'atida tutgan o'rni	748
Sharifov Shoxjaxon To'liqinjon o'g'li	
Ekonometrika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari va istiqbollari	752
Bobonorova Qundixan Quralbay qizi	
O'quvchi faolligini oshirishda jadid maktablari tajribasi va faol ta'lim metodlarining integrativ qo'llanilishi ..	759
Bobonazarov Orif Abrayqulovich	
Влияние гендерной лингвистики на развитие психолингвистических исследований в Узбекистане ..	764
Мусаева Елена Казимовна	
Psixik rivojlanishni tashxislashda psixofiziologik usullardan foydalanish samaradorligi	767
Sh. L. Rahmonova	

AQLI ZAIF O'QUVCHILARDA DISGRAFIYANI BARTARAF ETISHDA ASSISTIV TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Usmonov Umid Allayorovich

Chirchiq davlat pedagogika universitetining mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda butun dunyoda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida jamiyat hamda davlat taraqqiyotining teng huquqli ishtirokchilari sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu maqolada aqli zaif o'quvchilarda yozma nutqdagi kamchiliklarni, xususan disgrafiyani bartaraf etish hamda yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida assistiv texnologiyalarning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: disgrafiya, mayda motorika, yozuv ko'nikmalari, bilish jarayonlari, korreksiya, analiz va sintez, yozma nutq.

Abstract: Today, children with physical or mental disabilities are widely recognized as equal participants in the development of society and the state in political, economic, social, and cultural spheres. This article provides a scientific and theoretical analysis of the importance of assistive technologies in eliminating writing difficulties, particularly dysgraphia, and in developing writing skills among students with intellectual disabilities.

Key words: dysgraphia, fine motor skills, writing skills, cognitive processes, correction, analysis and synthesis, written speech.

Аннотация: В настоящее время дети с физическими или умственными нарушениями во всём мире признаются равноправными участниками развития общества и государства в политической, экономической, социальной и культурной сферах. В данной статье с научно-теоретических позиций рассматривается значение вспомогательных (ассистивных) технологий в устранении нарушений письма, в частности дисграфии, а также в развитии навыков письменной речи у учащихся с интеллектуальными нарушениями.

Ключевые слова: дисграфия, мелкая моторика, навыки письма, когнитивные процессы, коррекция, анализ и синтез, письменная речь.

KIRISH

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan, xususan aqli zaif o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Hech bir bola e'tibordan chetda qolmasligi, har bir farzand jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish – bizning eng muhim vazifamizdir" [1. 45–bet]. Shu nuqtai nazardan, aqli zaif o'quvchilarda o'qish-yozish jarayonini takomillashtirish, ularning yozma nutqida uchraydigan kamchiliklarni, xususan disgrafiyani bartaraf etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Disgrafiya – yozma nutq faoliyatining buzilishi bo'lib, o'quvchi tovush-harf tahlilini to'liq amalga oshirilmaganda, harflarni chalkashtirib yozganda, so'zlar orasida bo'shliqni noto'g'ri qo'yganda hamda grammatik jihatdan xatolarga yo'l qo'yganda namoyon bo'ladi. Aqli zaif bolalarda bu holat odatdagidan ham yaqqolroq ifodalanadi, chunki ularning diqqat, xotira, analiz-sintez faoliyati hamda motorik harakatlari sustroq rivojlangan bo'ladi. Natijada yozma nutqning shakllanish jarayoni murakkablashadi va o'quvchilar o'z fikrini yozma shaklda ifoda etishda qiyinchilikka duch keladilar.

Mazkur muammoni samarali hal etishda assistiv texnologiyalar, ya'ni o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi maxsus texnik vositalar, muhim o'rin tutadi. Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston – inson qadri ulug'langan jamiyat" degan tamoyiliga tayangan holda [2. 53–bet], imkoniyati cheklangan bolalar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish hamda raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda assistiv texnologiyalar nafaqat yordamchi vosita, balki ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida xizmat qilmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aqli zaif bolalarda bilish faoliyatining oliy shakllari yaxshi rivojlanmaganligi, fikrlashning yuzakligi, nutqning sekin rivojlanishi va sifat jihatidan o'ziga xosligi, xatti-harakatlarni so'z orqali nazorat qilishning izdan chiqishi hamda hissiy-irodaviy sohaning to'laqonli rivojlanmaganligi kuzatiladi. Aqli zaif bolalar uchun nutqning kech rivojlanishi xarakterlidir. Kuchli ortda qolish nutqqacha bo'lgan davridayoq kuzatiladi. Agar go'daklarda chug'ur-lash 4–8 oyligida me'yorida paydo bo'lsa, aqli zaif bolalarda esa bu holat 12–24 oylik davrda namoyon bo'ladi (I. V. Karlin, M. Strazulla).

Kassel, Shlezinger hamda M. Zeemanlarning fikricha, aqli zaif bo'lgan bolalarda birinchi so'zlar 3 yoshdan boshlab paydo bo'ladi. I. V. Karlin va M. Strazullaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bunday bolalarda birinchi so'zlar 2,5–5 yosh oralig'ida yuzaga keladi (bolalarda birinchi so'zlarning paydo bo'lish me'yori 10–18 oylik davrni tashkil etadi).

Aqli zaif bolalarda nutq rivojining sezilarli darajada ortda qolishi iboraviy nutqning paydo bo'lishida yaqqol ko'rinadi. Bunda birinchi so'zlarni bayon qilish bilan iboraviy (birikmali) nutq orasidagi oraliq vaqt ham normal rivojlangan bolalarga nisbatan ancha uzoqroq bo'ladi. Aqli zaif bolalarda nutq rivojlanishining o'ziga xos jihatlari ko'plab mualliflar tomonidan psixologik aspektida o'rganilgan (V. Petrova, M. Pevzner, I. Karlin, M. Strazulla, S. Borel Mezonni, Shlezinger, M. Zeeman va boshqalar). Yordamchi maktablarda tovush talaffuzidagi nuqsonlar umumta'lim maktablariga nisbatan ko'proq uchrashi qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyani bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning samaradorligini aniqlash maqsadida bir nechta ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilar bilan olib borilgan pedagogik kuzatuvlar, logopedik diagnostika natijalari hamda yozma ishlar tahlili orqali to'plandi. Shuningdek, o'qituvchi va logopedlar bilan suhbatlar o'tkazilib, assistiv texnologiyalarning amaliy qo'llanilish tajribasi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar solishtirma-tahliliy usul asosida qayta ishlanib, assistiv texnologiyalar qo'llanilishidan oldingi va keyingi yozma nutq ko'rsatkichlari taqqoslandi. Natijalar statistik va sifat tahlili orqali umumlashtirilib, xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Assistiv texnologiyalar jumlasiga nutqni matnga aylantiruvchi dasturlar (speech-to-text), matndan nutqqa o'tkazuvchi dasturlar (text-to-speech), maxsus klaviaturalar, ekran kattalashtiruvchi qurilmalar hamda grafik tashkilotchilar kiradi. Aqli zaif o'quvchilar ushbu texnologiyalar orqali yozma nutqni shakllantirish jarayonini soddalashtiradilar, yozishdagi xatolarni kamaytiradilar va o'z fikrini mustaqil ifoda eta olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Disgrafiyani bartaraf etishda eng samarali vositalardan biri so'z taxminini amalga oshiruvchi dasturlar hisoblanadi. Bunday dasturlar o'quvchi yozmoqchi bo'lgan so'zni tahlil qilib, to'g'ri variantni taklif etadi, bu esa aqli zaif bolalarda imlo va grammatik ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, nutqdan matnga aylantiruvchi texnologiyalar o'quvchilarning og'zaki nutqini yozma shaklga o'tkazishni osonlashtiradi. Bu esa ularning yozma ifoda etishdagi qo'rquvini kamaytiradi hamda o'z fikrini aniq bayon etish imkoniyatini yaratadi.

V. I. Belyukovning fikriga ko'ra, sirg'aluvchi tovushlarning buzilishi ularning akustik jihatdan bir-biriga yaqinligi bilan izohlanadi. Aqli zaif bolalarda og'zaki nutqni qabul qilishdagi buzilishlar hamda nutq eshitishining, analiz va sintezning to'la rivojlanmaganligi sirg'aluvchi tovushlarni talaffuz qilishdagi buzilishlar miqdorini belgilaydi. Aqli zaif o'quvchilarda nutq tovushlarini buzib talaffuz qilish bilan bir qatorda tovushlarni almashtirib qo'llash holatlari ham sezilarli darajada uchraydi. Tovush talaffuzining monomorf buzilishida tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish tovushlarni almashtirishga nisbatan taxminan 2,5 martaga ko'proq bo'ladi. Polimorf buzilishda esa tovushlarni almashtirish va tovushlarni buzib talaffuz qilish nisbatan bir xil miqdorda kuzatiladi. Aqli zaif bolalarda tovush talaffuzidagi buzilishlarning navbatdagi o'ziga xosligi mustaqil nutqda o'xshash, aniq va ravshan artikulyator qurilmalarni qo'llashdagi qiyinchiliklarda namoyon bo'ladi.

D. I. Orlovaning ma'lumotlariga ko'ra, yordamchi maktablarning 1-sinfida tovushlarni mustaqil nutqda to'g'ri talaffuz qila olmaslik va ulardan samarali foydalanmaslik holatlari ko'proq uchraydi. Birinchi o'quv yili davomida tovushlarni almashtirishning tarqalishi 3 martagacha kamayadi (1-sinfda 34,5 %, 2-sinfda 8,7 %). Bu holat bolalarda tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish, ya'ni artikulyator qurilmalarni to'g'ri rivojlantirish uchun bir o'quv yilining o'zi ham yetarli bo'lishini ko'rsatadi. 2-sinf o'quvchilarining mustaqil nutqida tovushlarni noto'g'ri qo'llash va ularni boshqa tovushlar bilan aralashtirish holatlari ortadi. Mustaqil nutqda tovushlardan to'g'ri foydalanish aqli zaif bolalarda murakkab tarzda namoyon bo'ladi va ularni bartaraf etish sekinlik bilan kechadi. Tovushlarni talaffuz qila olish malakalari o'rtasidagi tafovutlar hamda ularni nutqda qo'llashdagi farqlar ushbu toifadagi bolalarga xosdir.

Quyí sinf aqli zaif o'quvchilarida tovush talaffuzidagi keskin o'zgarishlar seziladi. Yordamchi sinflarning 1–2-sinflarida tovushlarning bir necha guruhidagi buzilishlar birgina guruh tovushlari buzilishiga nisbatan 2 martaga ko'proq kuzatiladi. Ikkinchi va uchinchi guruhga oid tovush buzilishlari (sirg'aluvchi, shovqinli, "r" va "l") yuqori darajada namoyon bo'ladi. To'rtinchi va beshinchi guruhlariga mansub tovush buzilishlari esa nisbatan kamroq uchraydi. 3-sinfdan boshlab bir yoki ikki guruh tovushlar buzilishi ko'proq tarqalgan bo'ladi, yuqori sinflarning aksariyat o'quvchilarida esa tovush hosil qilishdagi nuqsonlar faqat bir guruh tovushlarda kuzatiladi.

O'qish va yozishdagi buzilishlar bir-biriga o'xshash xususiyatga ega bo'ladi. Yozuvi buzilgan bolalarda oliy psixik funksiyalarning ko'plab buzilishlari, jumladan analiz va sintez qobiliyatining yetarli rivojlanmaganligi, fazoviy tasavvurlarni shakllantirishdagi qiyinchiliklar, nutq tovushlarini ko'rish va eshitish orqali farqlash malakasining sustligi, fonematik hamda bo'g'inli analiz-sintezning rivojlanmaganligi, gapni so'zlarga ajratishdagi muammolar, nutqning leksik va grammatik tuzilishidagi kamchiliklar, xotira va diqqat-e'tiborning sustligi, sukcesiv va simultan jarayonlar hamda emotsional-irodaviy sohaning yetarli shakllanmaganligi kuzatiladi. Motor disgrafiya esa yozuv jarayonida qo'l harakatlarining qiyinlashuvi, motor obrazlarining tovush va ko'rish obrazlari bilan bog'liqligining buzilishi bilan tavsiflanadi.

Disgrafiyaní bartaraf etishda yozuv mashqlari muhim o'rin tutadi. Artikulyator-akustik disgrafiyaní bartaraf etishda avvalo tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni to'g'rilash lozim bo'ladi. Ishning boshlang'ich bosqichida tovushlarni aytib takrorlamaslik tavsiya etiladi, chunki bu holat yozuv jarayonida xatoliklarga yo'l qo'yilishiga sabab bo'lishi mumkin. Disgrafiya va fonematik disleksiyani bartaraf etishda tilning analiz va sintez tomonlarini rivojlantirish, gapdagi so'zlar soni, ketma-ketligi va o'rnini aniqlash qobiliyatini shakllantirish muhim hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalar quyidagi topshiriqlar asosida rivojlantiriladi:

- syujetli rasmlar asosida gap tuzish va gapdagi so'zlar sonini aniqlash;
- ma'lum miqdordagi so'zlar asosida gap o'ylab topish;
- so'zlar sonini ko'paytirish orqali gapni kengaytirish;
- gapda so'zlarning o'rnini aniqlash;
- ma'lum sondagi so'zlar ishtirok etgan gaplarni matndan ajratish;
- gapdagi so'zlar soniga mos raqamni ko'rsatish.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida adabiyotlarda o'qish buzilishlari umumiy aqli zaiflikning simptomi sifatida baholanib, bu buzilishlar faqat aqli zaif bolalarda kuzatiladi, degan qarashlar mavjud bo'lgan (F. Baxman, B. Engler). XIX asr oxirida, 1896-yilda V. Morgan yozish va o'qishdagi kamchiliklarni aqliy jihatdan sog'lom bo'lgan 14 yoshli bolada kuzatgan. U ushbu holatni "orfografik jihatdan to'g'ri yozish va xatosiz bog'lanishli o'qish qobiliyatining yo'qligi" bilan izohlagan [2, 152–bet]. V. Morgandan so'ng bir qator mualliflar (A. Kussmaul, O. Berkan) o'qish va yozuvdagi buzilishlarni aqliy zaiflik bilan bog'lamasdan, nutq faoliyatidagi mustaqil kamchilik sifatida o'rgana boshladilar. Angliyalik okulist-shifokor Kerr va V. Morgan bolalardagi o'qish va yozish buzilishlariga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlarini e'lon qildilar. Bu holat o'qish buzilishlarini nazariy jihatdan o'rganishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.

O'qish murakkab psixofiziologik jarayon bo'lib, unda ko'rish, nutq-harakat va nutq-eshitish analizatorlari ishtirok etadi. Ushbu jarayon asosida "analizatorlarning murakkab o'zaro harakat mexanizmlari hamda ikki signal sistemasining vaqtinchalik aloqasi" yotadi, deb ta'kidlaydi B. G. Ananyev [3, 64–bet]. O'qish buzilishlari muammosini tanqidiy tahlil qilish, avvalo normada o'qish jarayonining murakkab psixofiziologik tuzilishini anglash va bolalarning o'qish malakalarini egallash xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi.

Ta'lim jarayonida assistiv texnologiyalarni samarali qo'llashda o'qituvchilarning tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligini qayd etib, "Pedagog zamon bilan hamnafas bo'lishi, yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq eta olishi lozim", deya ta'kidlagan [4, 61–bet]. Shu bois, maxsus maktablarda faoliyat yurituvchi logoped-pedagoglarning assistiv texnologiyalarni puxta o'zlashtirishi va ularni o'quv jarayonida to'g'ri qo'llashi muhim hisoblanadi.

Assistiv texnologiyalar aqli zaif o'quvchilarda yozma nutqdagi xatolarni kamaytirish bilan birga, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, motivatsiyani kuchaytiradi va ijtimoiy integratsiyani ta'minlaydi. Chunki ushbu vositalar yordamida o'quvchilar murakkab topshiriqlarni ham mustaqil bajarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, o'qituvchi o'quvchining rivojlanish dinamikasini aniq kuzatish hamda individual yondashuvni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, disgrafiyaní bartaraf etishda assistiv texnologiyalarning doimiy qo'llanilishi imloviy xatolar sonining kamayishiga, yozuv tezligining oshishiga va fikrni yozma shaklda ifoda etish qobiliyatining yaxshilanishiga olib keladi. Shuningdek, ushbu texnologiyalar bolalarda diqqatni jamlash, eslab qolish va rejalashtirish kabi kognitiv jarayonlarni ham faollashtiradi.



Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, assistiv texnologiyalar aqli zaif o'quvchilarda disgrafiyani bartaraf etishning eng muhim zamonaviy vositalaridan biridir. Ular o'quvchilarning yozma nutqdagi kamchiliklarini kamaytiradi, o'qituvchining ishini yengillashtiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bois, har bir maxsus ta'lim muassasasida zamonaviy assistiv texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchilarni ularni to'g'ri qo'llashga o'rgatish va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Yosh avlodni zamon talablari darajasida tarbiyalash, ularning imkoniyatini ro'yobga chiqarish orqali jamiyatimiz kelajagini mustahkamlash barchamizning muqaddas burchimizdir" [5, 38–bet].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bolalarda yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish orqali tovushlar talafuzi, fonematik idroki hamda so'zlarni tovush-bo'g'inli analiz va sintez qilish qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan ishlar jarayonida ko'ruv tayanchlari, ijobiy his-tuyg'ular va motivatsiyalarni hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bolalarning o'z kuchlariga bo'lgan ishonchini oshiradi, faolligini kuchaytiradi hamda o'qitish samaradorligining ortishiga xizmat qiladi.

Har bir mashg'ulotda mavzuga va bolalarning imkoniyatlariga mos logopedik texnologiyalarning almashlab qo'llanilishi bolalarning bir xil ish faoliyatidan zerikishlari hamda vazifalarni bajarish jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklardan ruhiy jihatdan siqilishlarining oldini oladi. Masalan, noan'anaviy logopedik texnologiyalar asosida berilgan topshiriqni bajarishda muvaffaqiyatsizlikka uchragan bola an'anaviy ish uslubida topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishi yoki aksincha holat kuzatilishi mumkin. Ish turlarining almashinib turishi bolaning o'z ustida ishlashi, boshqa ish usulida yo'l qo'ygan kamchiliklarini anglab yetishi va ularni bosqichma-bosqich tuzatishi hamda duch kelayotgan qiyinchiliklarini asta-sekin yengib borishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2022 – 45-bet.
2. Mirziyoyev Sh. M. Inson qadri ulug'langan jamiyat. Toshkent, 2021 – 53-bet.
3. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston – inson qadri ulug' yurt. Nutqidan, 2023 – 38-bet.
4. Mirziyoyev Sh. M. Ta'lim va tarbiya – millat kelajagi poydevori. Toshkent, 2020 – 61-bet.
5. Luriya A. R. Yozma nutq va uning buzilishlari. Moskva, 1975 – 88-bet.
6. Suxareva G. E. Anomal bolalar psixologiyasi. Moskva, 1989 – 112-bet.
7. Войлокова Е. Ф. Особенности использования слов-названий сенсорных эталонов дошкольниками с выраженной умственной отсталостью // Теоретические и прикладные проблемы образования лиц с интеллектуальной недостаточностью. Санкт-Петербург: Изд. РГПУ им. А. И. Герцена, 2000. С. 38–40.
8. Лисина М. И. Проблема онтогенеза общения. М.: "Просвещение", 1986 – С. 143.
9. Логопедия. Под ред. Л. С. Волковой, С. Н. Шаховской. М.: "Владос", 2003 – С. 46.
10. Ahmad A. Perceptions of Using Assistive Technology for Students with Disabilities in the Classroom. International Journal of Special Education, 2018 – 29-bet.
11. Magrid Education. How Assistive Technology for Dysgraphia Helps in Learning. 2024 – 4-bet.
12. Rahim N., Mokmin N. A., Wang J. Empowering Students with Dysgraphia. Disability & Rehabilitation, 2025 – 72-bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.